

UO‘K:632

**DORIVOR CHAKANDANING ZARARKUNANDALARI  
BIOEKOLOGIYASI**

**Abdullayeva Iroda Farhod qizi**

**Baxramova Dilafruz Begzod qizi**

**Rustamova Shaxnoza Axmad qizi**

**Qobilova Diyora Dilmurod qizi**

Toshkent Davlat Agrar Universiteti talabalari

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada chakanda dorivor o‘simligining asosiy zararkunandalari bioekologiyasi to‘g‘risida malumotlar keltirilgan bo‘lib, chakanda dorivor o‘simligiga asosan chakanda pashshasi, jiyda bargo‘rari, shilimshiqqurtlar, tunlamlar, chakanda o‘simlik biti, shiralar jiddiy zarar keltirishi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** Chakanda, zararkunanda, dorivor, chakanda pashshasi, bioekologiya

**KIRISH:** Respublikamizning o‘rmon xo‘jaliklarida yetishtirilayotgan chakanda dorivor o‘simligining asosiy qimmatli xususiyati meva sharbati va urug‘larida chakanda moyi (oblepixovoe maslo) mavjudligi bo‘lib, uning miqdori 8 foizgacha yetadi. Bundan tashqari mevasida S, Ye, V1, V2, vitaminlari, karotin, foliy kislotasi, flavonoidlar, organik kislotalar uchraydi. Moyi ham o‘z navbatida Ye va F vitaminlariga va karotinoidlarga boy, moyi radioaktiv nurlar ta‘sirida zararlangan teri, oshqozon-ichak, me‘da shilliq qavatlar, oshqozon-ichak yarasi va ginekologik kasalliklarni davolashda tengi yo‘q dorivor vositadir. Hozirgi paytda chakandani zararlovchi 50 turdagi xasharotlar, 3 ta kana turlari, 5 ta sitemizuvchi turlar va 12 ta qush turlari qayd etilgan. Ular orasida eng xavflilari – chakanda pashshasi, chakanda uyiqqanotli

*ilmiy –amaliy anjuman*

kuya kapalagi, chakanda o‘simlik biti, turkiston orgiyasi, jiyda bargurari, jiyda yoki chakanda bargxo‘ri va tengsiz pilla qurti hisoblanadi.

Chakanda pashshasi – *Rhagoletis batava obscuriosa* Rol.. Imagolari (yetuk xasharotlari) iyun boshlari-15 iyul oralig‘ida uchib chiqadi. Imago uzunligi 3,2-3,5 mm. Imago boshchasi sariq, orqa qismida qora nuqtali, kuzlari yaltiroq yashil, atrofi binafsha rangda. Kukragi uzunasiga 4 polosali och-kulrang g‘uborli qora rangda, bir juft tiniq qanotchalari bor. Lichinkalari oq qurtsimon, 7 mm uzunlikda, g‘umbaklari sariq rangda.

Zararkunanda imagosi 15-25 kun atrofida urug‘chi butalar atrofida uchib yuradi, chunki ular asosan meva shirasi bilan oziqlanadilar. Laboratoriya sharoitlarida sun‘ii oziqlantirilganda ular urtacha 31-33 kun, ba‘zi birlari 50 kungacha yashai dilar. Ular tuxum qo‘ygichi bilan rezavor meva pustlog‘ini teshadilar, tuqima strukturasi buzadi va sizib chiqqan meva shirasini iste‘mol qiladilar.

Zararkunanda urg‘ochisi tuxum qo‘ygichi bilan rezavor mevani teshib bitta, ba‘zan ikkitadan tuxum quyadi, sungra boshqa mevalarda ham shunday tuxum qo‘yishni davom ettiradi. Jami 150 tagacha tuxum quyishi mumkin, lekin urtacha tuxum qo‘yish mahsuldorligi 95-97 dona tuxum hisoblanadi.

Rezavor mevadagi tuxumdan 7-8 kundan so‘ng shakllangan zararkunanda qurti chiqadi va meva eti bilan oziqlanadi, ko‘p hollarda qurti ikkinchi meva etini teshib, unga o‘tishi ham kuzatiladi.



**1-rasm Chakanda pashshasining tashqi kurinishi. Zararlangan mevali novdasi.**

Oziqlanish davri tugagach, qurt mevani tark etadi va yerga tushib tuproqqa kumilib g‘umbakka aylanadi va shu tarzda keyingi yilgacha tinim davrida bo‘ladi. Zararkunandaning bu kabi yeppasiga g‘umbakka aylanish jarayoni avgust oxirlarida sodir buladi.

Chakanda o‘yiq qanotli kuya kapalagi – *Celechia hippopaella* Schrk. Ushbu zararkunanda ham chakanda tabiii tarqalgan barcha geografik mintaqalarda uchraydi. Zararkunanda kapalagi sariq-kulrang qanotchali, qanotining uzunligi 16-18 mm. Qurtlari 14 mm gacha uzunlikda bo‘ladi. G‘umbagi tuq-qung‘ir, 7-8 mm uzunlikda. Zararkunanda qishlovni tuxum kurinishida chakanda butasi ostida, barglar tagida novdaning darz ketgan yashirin yoriqlarida utkazadi.

Chakanda o‘simlik biti – *Capitophorus hippophaes* Walk. O‘simlik biti va uning lichinkalari qizil kuzchali bulib, och-yashil tusda. Tanasi tukchalar bilan qoplangan. Mo‘ylovchalari yashil. Oyoqchalari och-yashil tusda tuxumi ovalsimon.



## **2-rasm Chakanda dorivor o‘simligi va o‘simlik biti**

Zararkunandaning urug‘lantirilgan urg‘ochilari yozning oxirida buta novdalaridagi pustloq yoriqlarida, kurtaklar yaqinida, pustloq burtmalarida tuxum quyadilar va shu holda qishlovni o‘tkazadilar. Ushbu tuxumlardan lichinkalar martning birinchi yarmida – kurtaklarni yezilish davrida chiqadilar va rivojlanayotgan kurtakdagi yosh barglarga chiqib oladilar va shirasini surib oziqlanadilar, martning oxirida lichinkalar qanotsiz urg‘ochi ona xasharotga aylanadilar.

**Xulosa.** Chakanda dorivor o‘simligi bo‘lganligi uchun zararkunandalariga qarshi ko‘proq agrotexnik va biologik qarshi kurash usullaridan foydalanish maqsadga mofiq bo‘ladi, ushbu zararkunandlarga qarshi kurashish uchun erta bahorda kurtaklar burtg anda 0,5% entobakterin biologik suspenziya eritmasi bilan ishlov berish yaxshi samara beradi. Buta ostidagi tuproqqa tez-tez ishlov berish, barglardan tozalab turish kerak. Chakandazorlarni erta bahorda suv bosishi ham zararkunanda populyatsiyasini keskin kamaytirib yuboradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кошеляева И.П., Касынкина О.М.. Защита растений. Защита эфиромасличных и лекарственных растений от вредителей и болезней. Учебное пособие. 2014. Москва. С.127.
2. Ашимов К.С. Факторы снижения экологической устойчивости орехово-плодовых лесов. Бишкек, 2010. - 30 с.
3. Букштынов А.Д., Трофимов Т.Т., Ермаков Б.С. Облепиха. М.: «Лесная промышленность», 1978. - 191 с.
4. Chakandani madaniylashtirish biologiyasi va texnologiyasi (*Noshir Deutsche Gesellschaft fur Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH* ) Tashkent - 2016